Yaponiya olimlari polimer asosidagi himoya materialini ishlab chiqishdi

// 07.01.2025
https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/yaponiya-olimlari-polimer-asosidagi-himoya-materialini-ishla

Tokio texnologiya instituti olimlari turli kimyoviy moddalarga chidamli matolar uchun o’z-o’zidan tiklanuvchi qoplama yaratdi.

Yangi material asosida ular qishloq xo’jaligi sohasi xodimlari va harbiylar uchun pestitsidlar ta’siridan, shuningdek, kimyoviy va biologik tahdidlardan himoya qiluvchi maxsus kiyimlar ishlab chiqarishni rejalashtirishmoqda.

Innovatsion qoplamani yaratish uchun mato xavfsiz erituvchilarga asoslangan turli xil eritmalarga ketma-ketlikda botiriladi. Bunda material yuzasida turli zaryadli polimerlarning ko’p qatlamli polielektrolit qoplamasi hosil bo’ladi. Ishlanmaning o’ziga xos xususiyati shundaki, materialga maxsus fermentlarni, masalan, karbamidni parchalaydigan ureazani kiritish imkoni bor. Tadqiqot rahbari, professor Xiroshi Nakamuraning so’zlariga ko’ra, fermentlar tarkibini himoya kiyimining maqsadiga qarab o’zgartirish mumkin.

O’rnatilgan fermentlar “aqlli” to’siq bo’lib ishlaydi - ular teriga tegmasdan oldin xavfli moddalarni zararsizlantiradi. Shu bilan birga, himoya qatlamining qalinligi mikrondan kamroq bo’lib, shu sababli deyarli ko’rinmas bo‘ladi.

“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati